



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, IV-QISM

OPEN  ACCESS

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQUV VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna Sharipov Kongratbay Avezimbetovich THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	51
Kurbonova Ma'mura Abdulkarim qizi TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	55
Qaraev Anvar Botirovich THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARHING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	



O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI

Omonov Olim Murodullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: o.omonov@ssv.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi xarajat-foйда tahlili asosida ilmiy jihatdan baholangan. Tadqiqotda Sog'liqni saqlash vazirligining 2021–2026-yillardagi moliyalashtirish ma'lumotlari, axborot tizimlari auditi natijalari hamda raqamlashtirish jarayoniga oid ma'muriy hujjatlar asosiy axborot manbasi sifatida foydalanilgan. Tahlil natijalari sog'liqni saqlash tizimida mavjud axborot resurslarini yagona DMED platformasi doirasida konsolidatsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'layotganini ko'rsatadi. Xususan, platformani ichki resurslar hisobidan ishlab chiqish orqali qariyb 58 mlrd so'mlik ekvivalent xarajatlarning oldi olingani, alohida axborot tizimlari funksiyalarini yagona platformaga integratsiya qilish natijasida ishlab chiqish, litsenziyalash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirish imkoniyati yaratilgani asoslab berilgan. Shuningdek, laboratoriya xizmatlari samaradorligining ortishi, hujjat aylanishi jarayonlarining soddalashuvi, takroriy tibbiy tekshiruvlarning kamayishi hamda tibbiyot xodimlarini qo'shimcha xarajatlarsiz o'qitish imkoniyatlari raqamli transformatsiyaning muhim operatsion afzalliklari sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishda iqtisodiy samara faqat investitsiyalar hajmiga emas, balki ularni konsolidatsiya, interoperabellik va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari asosida tashkil etishga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Olingan ilmiy xulosalar sog'liqni saqlash tizimida raqamli transformatsiyani strategik rejalashtirish, investitsiyalar samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlashni raqamlashtirish, DMED platformasi, xarajat-foйда tahlili, konsolidatsiya, interoperabellik, raqamli salomatlik, investitsiya samaradorligi, axborot tizimlari.

Аннотация

В данной статье на основе анализа затрат и выгод научно оценена экономическая эффективность инвестиций, направленных на цифровизацию системы здравоохранения Узбекистана. В качестве основной информационной базы исследования использованы данные Министерства здравоохранения о финансировании за 2021–2026 годы, результаты аудита информационных систем, а также административные документы, связанные с процессом цифровизации. Результаты анализа показывают, что консолидация существующих информационных ресурсов системы здравоохранения в рамках единой платформы DMED является важным фактором повышения экономической эффективности. В частности, обосновано, что разработка платформы за счет внутренних ресурсов позволила предотвратить эквивалентные расходы в размере около 58 млрд сумов, а интеграция функций отдельных информационных систем в единую платформу создала возможность оптимизации затрат на разработку, лицензирование и техническое обслуживание. Кроме того, проанализированы такие важные операционные преимущества цифровой трансформации, как повышение эффективности лабораторных услуг, упрощение документооборота, сокращение повторных медицинских обследований, а также возможность обучения медицинских работников без дополнительных расходов. Результаты исследования показывают, что экономический эффект цифровизации системы здравоохранения зависит не только от объема инвестиций, но и от их организации на основе принципов консолидации, интероперабельности и рационального использования ресурсов. Полученные научные выводы имеют важное значение для стратегического планирования цифровой трансформации в системе здравоохранения, оценки эффективности инвестиций и разработки практических рекомендаций.

Ключевые слова: цифровизация здравоохранения, платформа DMED, анализ затрат и выгод, консолидация, интероперабельность, цифровое здравоохранение, эффективность инвестиций, информационные системы.



Abstract

This article provides a scientific assessment of the economic efficiency of investments directed toward the digitalization of Uzbekistan's healthcare system based on cost-benefit analysis. The study uses the Ministry of Health's financing data for 2021–2026, the results of information system audits, and administrative documents related to the digitalization process as the main information sources. The findings show that consolidating existing information resources within the unified DMED platform is an important factor in improving economic efficiency in the healthcare system. In particular, the article substantiates that developing the platform using internal resources helped prevent equivalent costs of nearly 58 billion UZS, while integrating the functions of separate information systems into a single platform created opportunities to optimize development, licensing, and technical maintenance costs. The study also analyzes key operational advantages of digital transformation, including improved laboratory service efficiency, simplified document flow, reduced repeated medical examinations, and opportunities to train medical workers without additional costs. The results indicate that the economic effect of healthcare digitalization depends not only on the volume of investments but also on their organization based on the principles of consolidation, interoperability, and rational use of resources. The scientific conclusions obtained are important for strategic planning of digital transformation in the healthcare system, evaluating investment efficiency, and developing practical recommendations.

Keywords: healthcare digitalization, DMED platform, cost-benefit analysis, consolidation, interoperability, digital health, investment efficiency, information systems.

KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish iqtisodiyotida investitsiyalar samaradorligini aniq baholash muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya strategiyalarida odatda samaradorlik, xizmatlar sifati va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish kabi natijalarga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ushbu natijalarni aniq iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash, ya'ni investitsiyalar hajmi bilan amaliy samaralar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, resurslardan oqilona foydalanish zarur bo'lgan sog'liqni saqlash tizimlarida raqamlashtirish byudjetini maqsadli yo'naltirish klinik xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston tajribasi sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonida investitsiyalar samaradorligini ma'muriy ma'lumotlar va amaliy natijalar asosida baholash imkonini beradi. 2021–2026-yillarda mamlakatda sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirishga izchil mablag' yo'naltirildi hamda ilgari alohida faoliyat yuritgan axborot tizimlarini yagona DMED platformasi doirasida integratsiyalash ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda mazkur platforma mamlakat bo'ylab to'rt mingdan ortiq tibbiyot muassasasini qamrab olgani uning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. 2026-yil boshida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan axborot tizimlari bo'yicha o'tkazilgan audit tarixiy xarajatlar va ularning natijalarini kompleks baholash uchun muhim axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish zarurati emas, balki ushbu jarayonning iqtisodiy samarasi qaysi omillar hisobiga shakllangani tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy ilmiy g'oyasi shundan iboratki, raqamlashtirishdan olinadigan iqtisodiy samara faqat investitsiyalar hajmiga emas, balki ularning qanday tashkil etilgani, mavjud axborot tizimlarining qay darajada konsolidatsiya qilingani va interoperabellik tamoyillari asosida boshqarilganiga ham bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, alohida tizimlarni yaratish o'rniga yagona platformani ichki resurslar asosida rivojlantirish, takrorlanuvchi funksiyalarni optimallashtirish va axborot tizimlari faoliyatini markazlashtirish muhim iqtisodiy natijalarni shakllantiruvchi omillar sifatida baholanadi.

Mazkur yondashuv sog'liqni saqlash tizimida raqamli transformatsiyani rejalashtirish va investitsiyalar samaradorligini baholashda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot ex-post tahlilga asoslangan bo'lib, allaqachon amalga oshirilgan raqamlashtirish jarayonlari, oldi olingan xarajatlar hamda hozircha to'liq pul ko'rinishida baholanmagan operatsion foydalarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi so'nggi yigirma yil davomida xalqaro ilmiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda. Elektron tibbiy yozuvlar, integratsiyalashgan axborot tizimlari, raqamli sog'liqni saqlash platformalari hamda ma'lumotlar almashinuvi mexanizmlarining iqtisodiy ta'siri bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning tibbiy xizmatlar sifati, boshqaruv samaradorligi, xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan oqilona foydalanishdagi o'zni alohida ta'kidlanadi.



Hillestad va boshqalar elektron tibbiy yozuvlar tizimlarining sog'liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va tibbiy xatolarni kamaytirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida raqamlashtirish uzoq muddatli istiqbolda sezilarli iqtisodiy va tashkiliy samara berishi mumkinligi asoslab berilgan [3]. Walker va boshqalar esa sog'liqni saqlash axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasi hamda ma'lumotlar almashinuvi qiymatini o'rganib, asosiy iqtisodiy samara alohida tizimlarni ko'paytirishdan ko'ra, ularning interoperabelligini ta'minlash orqali shakllanishini ko'rsatganlar.

Drummond va boshqalar sog'liqni saqlash dasturlarini iqtisodiy baholash metodologiyasini ishlab chiqib, xarajat-foyda tahlili, xarajat-samaradorlik tahlili va xarajat-foydalilik tahlili kabi yondashuvlarning ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslab berganlar. Ularning yondashuviga ko'ra, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yirik sog'liqni saqlash loyihalarini baholashda xarajat-foyda tahlili investitsiyalar natijadorligini aniqlashning muhim usullaridan biri hisoblanadi [4].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Global Strategy on Digital Health 2020–2025" hujjatida raqamli texnologiyalar sog'liqni saqlash xizmatlarining sifati, qamrovi va samaradorligini oshirishning strategik vositasi sifatida e'tirof etilgan. Jahon bankining "Digital-in-Health" hisobotida esa raqamlashtirish ma'lumotlar almashinuvi tezlashtirish, takroriy tekshiruvlarni kamaytirish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini berishi qayd etilgan [5].

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'rta daromadli davlatlar tajribasida raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy natijalarini baholashga qaratilgan amaliy tadqiqotlarni yanada kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega. Shu sababli O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlarini iqtisodiy nuqtai nazardan o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil va xarajat-foyda tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar, vazirlik ma'lumotlari hamda tegishli statistik ko'rsatkichlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik umumlashtirish hamda xarajat-foyda tahlili (Cost-Benefit Analysis) usullari qo'llanildi. Ushbu usullar orqali raqamlashtirish jarayoniga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, ularning iqtisodiy natijalari va sog'liqni saqlash tizimidagi amaliy samaralari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Shuningdek, axborot texnologiyalarini joriy etish natijasida shakllanayotgan tashkiliy, iqtisodiy va operatsion afzalliklar tizimli ravishda baholandi.

Tadqiqotda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligi investitsiyalarni markazlashtirish, axborot tizimlarini integratsiyalash, resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish hamda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish mezonlari asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo'yicha investitsiya siyosatini takomillashtirish, yagona raqamli platformalar samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim islohotlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar hisobiga elektron tibbiy yozuvlar tizimi, axborot almashinuvi platformalari, laboratoriya va diagnostika tizimlarini integratsiyalash hamda tibbiyot muassasalarini yagona raqamli infratuzilmaga ulash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar texnologik modernizatsiyani jadallashtirish bilan birga, sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning natijadorligini baholash va ularning iqtisodiy samaralarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tahlil qilinayotgan davrda sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga yo'naltirilgan ichki investitsiyalar quyidagicha shakllangan.



1-jadval

Sog'liqni saqlashni raqamlashtirishga ichki investitsiyalar hajmi

Manba (mlrd so'm)	2021	2022	2023	2024	2025	2026
Davlat byudjeti — raqamlashtirish	28,0	50,0	25,9	73,0	50,0	50,0
Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi	—	—	—	71,0	50,0	50,0
Yillik jami	28,0	50,0	25,9	144,0	100,0	100,0

Olti yil davomida ichki moliyalashtirish hajmi jami qariyb 448 mlrd so'mni tashkil etgan. Ayniqsa, 2024-yildan boshlab Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasining hammoliyalashtirish jarayoniga qo'shilishi natijasida raqamlashtirish loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash sohasidagi raqamli islohotlarni qo'llab-quvvatlashda xalqaro moliyalashtirish manbalari ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, Germaniyaning KfW banki liniyasi doirasida 45 mln yevro kredit va 5,5 mln yevro grant, Jahon banki komponentlari hamda tez tibbiy yordam yo'nalishidagi qariyb 6,1 mln AQSH dollari miqdoridagi mablag'lar raqamli salomatlik infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa milliy raqamli transformatsiya jarayonlarini xalqaro hamkorlik va ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish imkonini bermoqda.

Axborot tizimlarini konsolidatsiya qilishdan oldingi davrda alohida kasalxona axborot tizimlari uchun 3 mln va 8 mln AQSH dollari miqdoridagi yirik bir martalik xarajatlar amalga oshirilgan. Keyingi bosqichda yagona platforma modeliga o'tish ushbu turdagi xarajatlarni optimallashtirish, takrorlanuvchi funksiyalarni qisqartirish va resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini berdi.

Hujjatlarda qayd etilishicha, 2017–2025-yillarda Sog'liqni saqlash vazirligi zimmasiga jami 53 ta alohida axborot tizimini ishlab chiqish vazifasi yuklangan bo'lib, ulardan 43 tasi to'liq ishlab chiqilgan. Ushbu tizimlarning har biri alohida ishlab chiqish, joriy etish, texnik xizmat ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash xarajatlarini talab qilgan. Shu jihatdan, yagona DMED platformasiga o'tish axborot tizimlarini markazlashtirish, ularning funksiyalarini integratsiyalash va raqamli infratuzilmani boshqarishda samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda eng muhim iqtisodiy samara faqat bevosita byudjet xarajatlarning kamayishida emas, balki oldi olingan xarajatlar va optimallashtirilgan resurslar orqali ham namoyon bo'lgan. DMED platformasining milliy IT-integrator orqali ichki resurslar asosida ishlab chiqilishi tijorat asosida tayyor platforma xarid qilish zaruratini kamaytirgan. Ushbu yondashuv natijasida ekvivalent ishlab chiqish qiymati qariyb 58 mlrd so'mga baholangan iqtisodiy samara shakllangan. Shu jarayonda ilgari alohida faoliyat yuritgan yigirmata axborot tizimining funksiyalari yagona platforma tarkibiga integratsiya qilingan, 2025-yil noyabrda vazirlik bayonnomasi asosida esa funksional jihatdan takrorlanuvchi o'ttizta tizim yagona reestrda chiqarilib, axborot tizimlari tarkibi optimallashtirilgan.

Mazkur optimallashtirish jarayonining har bir elementi muayyan iqtisodiy samara manbai sifatida baholanishi mumkin. Platformani ichki resurslar asosida ishlab chiqish ekvivalent tijorat platformasini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirgan. Yigirmata tizim funksiyalarining yagona platformaga integratsiya qilinishi ularni alohida ishlab chiqish, yuritish va qo'llab-quvvatlash xarajatlarini optimallashtirish imkonini bergan. Shuningdek, o'ttizta tizimning reestrda chiqarilishi ularning litsenziyalash, xosting va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq takroriy xarajatlarni qisqartirishga xizmat qilgan.

Keyingi yillarda raqamlashtirish uchun yillik qariyb 100 mlrd so'm miqdorida mablag' yo'naltirilayotganini hisobga olganda, qariyb 58 mlrd so'mlik oldi olingan ishlab chiqish qiymati sezilarli iqtisodiy natija sifatida baholanishi mumkin. Ushbu samara qo'shimcha xarajatlarni ko'paytirish hisobiga emas, balki axborot tizimlarini oqilona tashkil etish, takroriy funksiyalarni integratsiyalash va yagona platformaviy boshqaruv modeliga o'tish orqali shakllangan.

Oldi olingan kapital xarajatlardan tashqari, yagona platforma sog'liqni saqlash tizimida takrorlanuvchi operatsion samaradorlikni oshirishga ham xizmat qilgan. Quyida ushbu samaralar mavjud ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Laboratoriya o'tkazuvchanligi. Yuzdan ortiq analizatorning platformaga bevosita ulanishi natijasida laboratoriya natijalarini qo'lda qayta kiritish zarurati kamaydi. Bu esa ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish, ehtimoliy texnik xatolarni qisqartirish va natijalarni elektron shaklda tezkor shakllantirish imkonini berdi. Natijada tahlil yakunlari qisqa vaqt ichida elektron tizimda aks etib, bir kun davomida davolovchi shifokor tomonidan ko'rish imkoniyati yaratildi.

Hujjat aylanishi samaradorligi. Yetmishdan ortiq turdagi rasmiy jurnal va blankalarning elektron shaklga o'tkazilishi hujjat yuritish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qildi. Bu esa bir xil ma'lumotlarni bir nechta



daftarlarga takroran kiritish zaruratini kamaytirib, tibbiyot xodimlarining ish vaqtini yanada samarali tashkil etish imkonini berdi.

Takroriy tekshiruvlarning kamayishi. O'ttiz sakkiz milliondan ortiq yozuvga birlashtirilgan yagona bemor identifikatori — MED-ID avvalgi tibbiy natijalarni muassasalararo ko'rish imkonini yaratdi. Bu laboratoriya tahlillari, rentgen, UTT va MRT kabi diagnostik tekshiruvlarning asossiz takrorlanishini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizm sog'liqni saqlash tizimida oldi olingan xarajatlarning muhim manbalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Uning aniq pul qiymatini hisoblash esa kelgusida foydalanish statistikasi asosida yanada chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.

Kadrlar salohiyatini oshirish. Platforma orqali 162 mingdan ortiq tibbiyot xodimi tizimda ishlash bo'yicha o'qitildi, ularning qariyb 69,5 foizi attestatsiyadan o'tdi. Ushbu jarayon alohida o'quv byudjetini shakllantirmagan holda amalga oshirilgani raqamli platformaning nafaqat texnologik, balki inson kapitalini rivojlantirishdagi amaliy ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Aholi qamrovini kengaytirish. Platformaning vaziyatli monitoring imkoniyatlari keng ko'lamli skrining jarayonlarini samarali muvofiqlashtirishga yordam berdi. Jumladan, qirq yoshdan oshgan aholi orasida qandli diabet bo'yicha qariyb 2,5 million, yurak-qon tomir kasalliklari bo'yicha esa 3 millionga yaqin kishi tekshiruvdan o'tkazildi. Bu raqamli monitoring vositalarining profilaktik tibbiyot, erta aniqlash va aholi salomatligini nazorat qilishdagi ahamiyatini oshiradi.

Umumlashtirilgan holda, xarajat-foyda tahlili sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasida sezilarli iqtisodiy va operatsion samaralar shakllanganini ko'rsatadi. Xarajalar tomonida olti yillik qariyb 448 mlrd so'mlik ichki investitsiya hamda xalqaro integratsion moliyalashtirish manbalari mavjud. Foyda tomonida esa qariyb 58 mlrd so'm atrofidagi oldi olingan ekvivalent ishlab chiqish qiymati, yigirmata axborot tizimi funksiyalarining yagona platformaga integratsiya qilinishi, o'ttizta tizim bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarning optimallashtirilishi, alohida kasalxona axborot tizimlari uchun kelgusidagi yirik xarajatlarning kamayishi, platforma orqali o'tkazilgan o'quv jarayonlari hamda laboratoriya, hujjat aylanishi va takroriy tekshiruvlar bo'yicha shakllangan operatsion tejamkorliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish dasturining samaradorligi faqat investitsiyalar hajmi bilan emas, balki ularning samarali tashkil etilishi, yagona platforma asosida boshqarilishi va axborot tizimlari integratsiyasiga tayanishi bilan izohlanadi. Yillik investitsiyalar hajmining nisbatan barqaror shakllanishi sharoitida asosiy iqtisodiy samara alohida tizimlarni ko'paytirishdan ko'ra, mavjud funksiyalarni yagona, o'zaro bog'langan platformada jamlash orqali yuzaga kelgan. Bu holat xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan interoperabellik va axborot tizimlarini konsolidatsiya qilish tamoyillarining O'zbekiston tajribasida ham amaliy tasdig'ini topayotganini ko'rsatadi.

Mazkur modelning ikki jihati alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, platformani ichki resurslar asosida ishlab chiqish tijorat asosida tayyor platforma xarid qilish bilan bog'liq bevosita xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirgan va texnologik salohiyatning mamlakat ichida shakllanishiga xizmat qilgan. Ikkinchidan, KfW va Jahon banki liniyalari orqali jalb etilgan tashqi moliyalashtirish ichki raqamli islohotlarni xalqaro standartlar, hamkorlik mexanizmlari va ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish imkonini bergan. Bu esa raqamli transformatsiyaning nafaqat moliyaviy, balki institutsional samaradorligini ham oshiradi.

Shu bilan birga, baholash natijalarini talqin qilishda ayrim metodologik chegaralarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Tadqiqot ex-post yondashuvga asoslangan bo'lib, unda asosan amalga oshirilgan islohotlar, oldi olingan xarajalar va mavjud ma'lumotlar asosidagi samaralar tahlil qilingan. Uzoq muddatli operatsion foydalar, jumladan, shifokorlar ish vaqtining tejalishi, kasalliklarni erta aniqlash samarasi va takroriy tekshiruvlarning kamayishi hozircha asosan fizik ko'rsatkichlar va mexanizmlar orqali ifodalangan. Ushbu yo'nalishlarning aniq pul qiymatini baholash kelgusida yanada kengroq statistik ma'lumotlar va monitoring natijalari asosida amalga oshirilishi mumkin. Mazkur cheklovlar tadqiqotning asosiy xulosalarini inkor etmaydi, aksincha sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish samaradorligini chuqurroq baholash uchun istiqbolli yo'nalishlarni belgilab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari texnologik yangilanish bilan bir qatorda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning asosiy iqtisodiy natijasi faqat yangi axborot tizimlarini joriy etishda emas, balki mavjud axborot resurslarini yagona platforma asosida integratsiyalash, boshqarish va ulardan samarali foydalanishda namoyon bo'ladi.

DMED platformasi misolida axborot tizimlarini konsolidatsiya qilish orqali takrorlanuvchi xarajatlarni optimallashtirish, texnik xizmat ko'rsatish va dasturiy ta'minotni qo'llab-quvvatlash xarajatlarni kamaytirish, ma'lumotlar almashinuvi samaradorligini oshirish hamda tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish



imkoniyatlari shakllangani aniqlandi. Shuningdek, laboratoriya natijalarini qayta ishlash tezligining oshishi, hujjat aylanishining elektron shaklga o'tkazilishi va takroriy diagnostik tekshiruvlarning kamayishi sog'liqni saqlash tizimida qo'shimcha iqtisodiy va operatsion samaralar yuzaga kelishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot yakunlariga ko'ra, sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishda investitsiyalar samaradorligi nafaqat ularning hajmiga, balki mablag'larni maqsadli boshqarish, axborot tizimlarini konsolidatsiya qilish va interoperabellik tamoyillari asosida tashkil etishga ham bevosita bog'liq. Shu sababli kelgusida sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo'yicha investitsiya siyosatini yagona platformalarni rivojlantirish, ma'lumotlar integratsiyasini chuqurlashtirish, axborot tizimlari o'rtasida uzviy ma'lumot almashinuvini kuchaytirish hamda iqtisodiy samaralarni muntazam monitoring qilish yo'nalishlarida davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy taklif sifatida, birinchidan, DMED platformasining funksional imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish va uni barcha tibbiyot muassasalari faoliyati bilan yanada chuqur integratsiya qilish zarur. Ikkinchidan, raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini baholash uchun xarajat-foyda tahlili, operatsion tejamkorlik va xizmat sifati ko'rsatkichlarini qamrab oluvchi doimiy monitoring tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, tibbiyot xodimlarining raqamli ko'nikmalarini oshirish bo'yicha platforma asosidagi o'quv dasturlarini davom ettirish sog'liqni saqlash tizimida raqamli transformatsiya samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R. Hillestad, J. Bigelow, A. Bower, et al. 2005. Can electronic medical record systems transform health care? Potential health benefits, savings, and costs. *Health Affairs* 24, 5 (2005), 1103–1117.
2. J. Walker, E. Pan, D. Johnston, et al. 2005. The value of health care information exchange and interoperability. *Health Affairs* 24, Suppl. 1 (2005).
3. Michael F. Drummond, Mark J. Sculpher, Karl Claxton, George L. Stoddart, and Greg W. Torrance. 2015. *Methods for the Economic Evaluation of Health Care Programmes* (4th ed.). Oxford University Press, Oxford, United Kingdom.
4. World Health Organization. 2021. *Global Strategy on Digital Health 2020–2025*. World Health Organization, Geneva, Switzerland.
5. OECD. 2015. *Health Data Governance: Privacy, Monitoring and Research*. OECD Health Policy Studies. OECD Publishing, Paris, France.
6. World Bank. 2023. *Digital-in-Health: Unlocking the Value for Everyone*. World Bank, Washington, DC, USA.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2023. Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (PQ-415-son qaror, 28 dekabr 2023-yil). Retrieved from <https://lex.uz/docs/6719038>
8. KfW Development Bank. 2023. Improving health through digital reforms: Digitalisation of the Uzbek health sector—KfW signs agreement for EUR 50.5 million. Press Release. KfW Development Bank, Frankfurt, Germany.
9. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. 2026. Axborot tizimlari auditining dastlabki materiallari; 2021–2026-yillar moliyalashtirish ma'lumotlari; raqamlashtirish yo'l xaritasi. Tashkent, Uzbekistan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>